

UDK: 82.31

**O‘TKIR HOSHIMOVNING “BAHOR QAYTMAYDI” VA CHINGIZ  
AYTMATOVNING “SARVQOMAT DILBARIM” QISSALARINING QIYOSIY  
TAHLILI****D.O. Xamidova***Samarqand shahar 21-umumta’lim maktabi o‘qituvchisi*  
[dilorom.xamidova94@gmail.com](mailto:dilorom.xamidova94@gmail.com)

**Annotatsiya:** *Qissa milliy kitobxonlikning, adabiy jarayonning qiyofasini ko‘rsatuvchi o‘ta muhim janr. Romanga yetmagan, hikoyaga sig‘magan oraliq ijodiy quvvat qissada aks etadi. Mumtoz adabiy durdonalarimizdan ma’lumki, ijodkorlarning o‘zaro ijodiy ta’sirlanishi, sayyor syujet, rivoyatlardan foydalanishi badiiy adabiyotning takomillashuviga olib keladi. Ushbu hodisa XX asr ijodkorlarini ham chetlab o‘tmagan. Bir daryodan suv ichgan ikki xalq yozuvchilari O‘tkir Hoshimov va Chingiz Aytmatovning ijod mahsullari nafaqat o‘z xalqi orasida, balki butun dunyoda sevib o‘qiladi. Mazkur ishimizda “Bahor qaytmaydi” hamda “Sarvqomat dilbarim” qissalarining ayrim o‘xshash tomonlarini qiyosladik. Syujet, kompozitsiya, xarakterlar, davr va makon o‘xshashligi shular jumlasidandir. Har ikki asar bosh qahramonlari xudbinliklari, o‘ylamay ish tutishlari sababli taqdir sinovlaridan muvaffaqiyatli o‘tolmadilar. Sevikli yor, mehribon ota maqomiga erisha olmadilar. Biz maqolamizda buni batafsil yoritishga harakat qildik.*

**Kalit so‘zlar:** *qissa, qiyosiy tahlil, syujet, xarakter, rivoyat, davr, makon, fojia.*

**СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПОВЕСТОВ УТКИРА ХАШИМОВА  
«ВЕСНА НЕ ВОЗВРАЩАЕТСЯ» И ЧИНГИЗА АЙТМАТОВА «ТОПОЛЕК  
МОЙ В КРАСНОЙ КОСЫНКЕ»**

**Аннотация:** *Повесть - очень важный жанр, отображающий образ национального чтения и литературного процесса. Промежуточная творческая сила, которой недостаточно для романа и не умещается в рассказе, находит свое отражение в новелле. Из наших классических литературных шедевров известно, что творческое взаимодействие творцов, использование подвижных сюжетов, повествований ведет к совершенствованию художественной литературы. Это явление не ускользнуло от художников 20 века. Творчество Уткира Хашимова и Чингиза Айтматова, писателей двух народов, пьющих воду из одной реки, любимо не только среди своего народа, но и во всем мире. В данной работе мы сравнили некоторые схожие аспекты повестов «Весна не возвращается» и «Тополек мой в красной косынке». Среди них сходство сюжета, композиции, персонажей, периода и пространства. Главные герои обоих произведений не выдержали испытаний судьбы из-за своего эгоизма и*

необдуманных поступков. Они не добились статуса любящего мужа и любящего отца. Об этом мы постарались подробно рассказать в нашей статье.

**Ключевые слова:** рассказ, сравнительный анализ, сюжет, персонаж, повествование, период, пространство, трагедия.

## COMPARATIVE ANALYSIS OF UTKIR HASHIMOV'S STORIES "SPRING DOES NOT RETURN" AND CHINGIZ AITMATOV'S "MY POPLAR IN A RED SCARF"

**Abstract:** *Story is a very important genre that shows the image of national reading and literary process. The intermediate creative power, which is not enough for a novel and does not fit into a short story, is reflected in the story. It is known from our classic literary masterpieces that the creative interaction of creators, the use of mobile plots, and narratives leads to the improvement of fiction. This phenomenon did not leave unattended the artists of the 20<sup>th</sup> century. The creative products of Utkir Hoshimov and Chingiz Aitmatov, writers of two peoples who shared common origin, are loved not only among their own people, but all over the world. In this work, we compared some similar aspects of the stories "Spring does not return" and "My poplar in a red scarf". Similarity of plot, composition, characters, period and space are among them. The protagonists of both works failed the tests of fate due to their selfishness and thoughtless actions. They did not achieve the status of a loving husband and a loving father. We tried to address this in detail in our article.*

**Keywords:** *story, comparative analysis, plot, character, narrative, period, place, tragedy.*

O‘z xalqi va boshqa xalq kitobsevarlari uchun qadrli hisoblangan ikki buyuk ijodkor: biri O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimov, yana biri Qirg‘iziston xalq yozuvchisi Chingiz Aytmatovlarning bir-biriga mazmun jihatdan o‘xshash bo‘lgan asarlarini o‘rganamiz. Nafaqat o‘z davrida, balki bugungi kunda ham sevib o‘qiladigan, 1970-yilda O‘tkir Hoshimov tomonidan yaratilgan “Bahor qaytmaydi” qissasi qahramonlari o‘sha bizga tanish Alimardon To‘rayev, Anvar, Muqaddam, Klara, Shavkat, Mutal Qodirov, Kabir va boshqalarning taqdiri bilan, hattoki Yevropa yoshlari ham sevib mutolaa qiladigan Chingiz Aytmatovning “Sarvqomat dilbarim” qissasi qahramonlari Ilyos Aliboyev, Asal, Xadicha, Samad, Boytemir va boshqa obrazlarning taqdiri bir-biriga o‘xshaydi.

“Bahor qaytmaydi” qissasining qahramonlari Alimardon bilan Muqaddamning, “Sarvqomat dilbarim” qissasining qahramonlari Ilyos bilan Asalning o‘zaro qanday sharoitda tanishganliklarini qiyosan olib qaraydigan bo‘lsak, Alimardon ham, Ilyos ham o‘g‘ir ahvolga tushib qolganlarida ularning o‘z sevimli yorlari bilan tanishuv onlari yuz beradi. Alimardon betob bo‘lib qolganida Muqaddam xuddi farishta misol uni da‘volagani keladi. Ilyosning esa mashinasi loyga botib qolganida Asal Ilyosga yordam bergani keladi. Mana shu kundan boshlab Alimardon ham, Ilyos ham oshiq bo‘lib qoladi.

Ikki asar qahramonlarining turmush qurishlarida o‘xshashlik mavjud. Do‘stlik muqaddas tuyg‘u. Do‘stlik insonlar orasida o‘zaro sadoqatni talab qiladi. Unga amal qilmagan inson do‘stlaridan judo bo‘lib qolishi hech gap emas. Alimardon garchi do‘sti Anvar Muqaddamni

anchadan beri sevishini bilsa-da, do‘stiga xiyonat qilib Muqaddamga uylanadi. Asal yashaydigan ovul an‘analari bo‘yicha qarindoshiga unashirilganligidan xabardor bo‘lsa ham Ilyos bir kun kelib Asalning ota-onasi ularni kechirishiga umid qilgan holda, Asalning roziligi bilan uni uyidan olib ketadi. Ular oila qurishadi. Albatta, ular baxtli hayot kechirishadi. Ammo Alimardon ham, Ilyos ham bitta katta xatoga yo‘l qo‘yishadi. Bizga ma‘lumki, Alimardonga Olloh iste‘dod, yaxshi do‘st, shon-shuhrat, muhabbat, boylik ato etgan. U o‘z muhlislariga ega bo‘lgan, iste‘dodli xonanda bo‘lib yetishadi. Ammo Alimardonning shuhrati kundan-kunga oshib, tobora yuksak cho‘qqilarga ko‘tarilib borayotganida, o‘zligini yo‘qotib qo‘yadi.

“Alimardon hamon oyga o‘xshar edi. U kun sayin tiniqlashib, kun sayin yorqinlashib, zamindan uzoqlashib borardi-yu, bir narsani bilmasdi. Oy eng baland nuqtasiga yetganidan keyin pastga sho‘ng‘ishga majbur bo‘lishidan bexabar edi.” [Bahor qaytmaydi, 55-bet.]

U yanada ko‘proq ijod qilish o‘rniga “Odamlar borini hazm qilib tursin-chi!” – deb ijodni qilishni tashlab qo‘yadi.

Oxir-oqibat, uning shuhrati pasayib, teatr shiftini ko‘chirib yuborgudek olqishlar o‘rnini sahnani tark etishini buyuruvchi ovozlar egallaydi. Uning o‘rniga muhlislar boshqa mehnatkash, kamtar va iste‘dodli Mutal Qodirovni olqishlaydilar. Alimardon esa Mutal Qodirovni yomon ko‘rib qoladi, uni olqishlab tinglayotganlarni sotqinlar, befahmlarga chiqaradi. Aslida esa bu ishlarining hammasiga Alimardonning o‘zi sababchi bo‘ladi. Yaqin kishilarining unga bergan maslahat-u tanbehlariga quloq solmaydi. Alimardon ishlaydigan teatr direktori Zufar Xodiyevich unga shunday deydi:

“Sizning san‘atingiz ham yaxshi san‘at edi. Ajoyib edi! O‘zingiz uni tarbiyalay olmadingiz. Aynib ketdingiz. Qo‘shiqlaringizning hammasi bir-biriga o‘xshaydigan bo‘lib qoldi... Siz iste‘dodingizni chakana pullaydigan bo‘lib qoldingiz. Yengil-yelpi maqtovlar ovozingizni bo‘g‘ib qo‘ydi”. [Bahor qaytmaydi, 55-bet.]

“Sarvqomat dilbarim” qissasi qahramoni Ilyos o‘zi ishlaydigan Ribachedagi avtobazada o‘z o‘rniga ega shofyor. U o‘z kasbini sevar, qilayotgan ishidan juda ham mamnun edi. Ilyosning xarakteridagi bir xususiyat bor ediki Ilyos buni shunday ta‘kidlaydi:

“Xarakterim shunaqa, bilmadim, bu yaxshimi, yomonmi. Biroq bundan qat‘iy nazar, miyamga bir fikr keldimi, bo‘ldi, kuyib-yonib ketsam ham baribir uni amalga oshirmaguncha qo‘ymayman”. [Chingiz Aytmatov. Tanlangan asarlar: 1-jild: Qissalar. 298-bet.] “Inson o‘sadi, o‘zgaradi, shakllanadi, ruhan-ma‘nan boyib boradi. Lekin inson tamoman o‘zgarib, ikkinchi “men” kasb etmaydi, o‘zligini yo‘qotmaydi, ya‘ni ijtimoiy munosabatlar majmui inson mohiyati, fitrati mehvarida ro‘y beradi. Aniqroq aytsek, fitrat mavjudki, inson o‘zgaradi, moslashadi, tuslanadi, turlanadi. Demak, betakror, muqim o‘zak ijtimoiy munosabatlarni singdirib boradi. Adabiy xarakter deganda o‘zak (fitrat, tiynat) va ijtimoiy munosabatlar yig‘indisi tushuniladi”. [Пасулов А. 9-6.]

Ilyosning bu xakteri keyinchalik uning butun hayotiga ta‘sir etadi. Avtobazaga kelgan topshiriqga ko‘ra yangi zavod qurilishi tez kunlarda bitishi kerak bo‘lib qoladi. Lekin yo‘lni yuklar to‘sib qolgani sababli, ish orqaga surilayotgan edi. Yuklarni dovondan



o'tkazishning tez va oson yo'lini qidirishadi. Shunda Ilyos boshqa shofyorlarga yuklarni pritsep yordamida o'tkazishni taklif qiladi. Bunday xavfli va sinalmagan ishni qilishga boshqalar rozilik bildirmaydi. Ilyos esa o'z bilganidan qolmaydi. Bu ishni yolg'iz o'zi bajarishga harakat qiladi. Dovondan yuklarni pritsep orqali olib o'tayotganida halokatga uchraydi. Ilyosning xudbinlik qilib, yolg'iz o'zi shon-shuhratga erishmoqchi bo'lib qilgan ishi uchun avtobazadagi barcha hamkasblari undan yuz o'giradilar. Ilyosning do'sti Alibek unga shunday tanbeh beradi:

“Yolg'iz o'zing shuhrat qozonmoqchi bo'lding !O'zing uchun tirishding! Biroq muhim ishni barbod qilding. Mana endi shulardan keyin ham pritsep bilan yurish mumkinligini isbotlab ko'r-chi! Ahmoq! Shuhratparast!” [Chingiz Aytmatov. Tanlangan asarlar: 1-jild: Qissalar. 299-bet.]

Shunday bo'lsa-da Ilyos o'ylagan rejasini amalga oshirish uchun yana bir bor urinib ko'rmaydi. Doimo ma'lum maqsadni ko'zlab ish olib boradigan Alibek keyinchalik Ilyos qila olmagan ishni o'ziga hamroh olib, hamkorlikda amalga oshiradi. Ilyos o'zini o'nglab ololmaydi. Xatosini to'g'rilashga urinib ko'rmaydi, barchasiga etak silkib, ichkilikka ruju qo'yadi.

“Badiiy asardagi personaj xarakterining shakllanishida tipik sharoitning roli katta. Tipik sharoit esa, u yashagan davr, muhit bilan belgilanadi. Qahramon yashagan davr, muhit muallif tomonidan chizib berilgan shart-sharoit tasviri, tabiat manzarasi, muallif hikoyasi va xarakteristikasi, qahramonning muhitga bo'lgan munosabati, simpatiya va antipatiyasi, kishilar bilan aloqasini ko'rsatish asosida ochib boriladi”. [Солиев А. 110-б.]

Har bir inson haqiqiy taskinni oilasida oladi. Oilasi tinch bo'lsa, ko'ngil xotirjamligida mehnat faoliyatini olib boradi. “Qars ikki qo'ldan chiqadi” -deganlaridek oilaviy xotirjamlik va ahillik ikki tomon: er va xotinga bog'liq. Garchi Muqaddamga ko'ngil qo'yib uylangan bo'lsa-da, Alimardon rafiqasiga qo'pol munosabatda bo'lar, qadriga yetmasdi. Muqaddam Alimardonni eng qadrdon insoni deb bilar, biror kun insof berib qolishini kutardi. Aksincha, Alimardon shuhratga, boylikka erishavergach, Muqaddamdan ayb qidiradigan, boshqa ayollar bilan ko'ngilxushlik qiladigan bo'ladi. Ammo ko'za kunda emas, kunida sinadi, Muqaddam Alimardonning qing'ir yurishlarini sezsa-da, ishongisi kelmasdi. Alimardon o'z uyida, begona ayol Klarani keltirgani uchun Muqaddam o'g'li Shavkat bilan uyini, olam-olam orzular bilan qadam qo'ygan makonini, bir umrga tark etadi. Alimardon ham dunyodagi eng qadrli kishilari o'g'li va rafiqasidan ayrilgani sababli o'zini kechirolmaydi. Muqaddam ham o'ziga yarasha g'ururli, oriyatli ayol. Turmush o'rtog'ining bunday pastkashligini also kechirolmaydi. Hatto, bir umr qattiq qo'l otasidan qo'rqan Muqaddam ichki bir jasorat bilan uning ra'yiga qarshi boradi. Dugonasi Lobar bilan Oynatoqqa yangi hayot boshlash uchun ketadi. Alimardonning so'nggi umidi Anvardan bo'ladi. Undan Muqaddamni uyga qaytishga ko'ndirishni so'raydi. Lekin endi kech edi. Muqaddam Kabir ismli o'rmonchiga turmushga chiqqan bo'ladi. Alimardon bu haqda eshitib, barcha irodasiz kimsalar kabi alamini ichkilikdan oladi. Alimardon bir umid bilan, ya'ni o'g'li Shavkatni ko'rish umidi bilan yashaydi. Ammo uning ardoqlagan o'g'li Shavkat endi boshqa bir insonni “otam” deb tan olayotganligi, Alimardonning o'g'liga otalik qilishga

yaramaganligi uning qalbini butunlay xonavayron etadi. U bahori hech qachon qaytmaydigan yildek huvillab qoldi. Tubsiz jarlik qa'riga g'arq bo'lib halok bo'ladi:

“Saxiy ko'klam ko'p qatori Alimardonning qabrini ham chechaklarga burkadi. Maysalar orasida ochilgan bittagina qizg'aldoq tong shudringiga qadah tutdi. Erta-indin to'kilib ketishi, o'zidan na bir muattar bo'y, na meva qolishidan bexabar yal-yal yondi...” [Bahor qaytmaydi. 127-bet.]

Chingiz Aytmatovning “Sarvqomat dilbarim” qissasi qahramoni Ilyos ishida muvaffaqiyatsizlikka uchragani sababli Asaldan uzoqlashadi. Ilyosga barcha narsaning farqi yo'q, bir umr kechirib bo'lmaydigan xato qilib qo'ygan odamdek o'zini his qiladi. Mana shunday tushkun kayfiyatda Ilyos yana bir katta xatoga yo'l qo'yadi. Jonini ham berishga tayyor bo'lgan odamlar Asal va Samadga xiyonat qiladi. Xadicha Ilyosga uning ko'nglidagi dardlarini tushunuvchi, uning xatosini yuziga solmaydigan yagona inson bo'lib ko'rinadi. Ammo Ilyos yanglishganligini angelaydi. Shuning uchun, Asalga necha bor haqiqatni aytmoqchi bo'ladi, lekin uddasidan chiqolmaydi.

Hayotda ham, badiiy adabiyotda ham yomon niyat bilan birovlarining turmushiga rahna soluvchi kimsalar bo'ladi. “Sarvqomat dilbarim” asarida Ilyos juda yomon ko'rgan Jontoy ismli shofyor Asalga Ilyos bilan Xadichaning munosabati haqida aytib beradi. Asal o'g'li bilan uyidan bosh olib chiqib ketgach, Ilyos ikki orada qolib ketadi.

Inson ko'pincha doimo yonida bo'lgan odamlarning qadriga yetmaydi. U qachonki ulardan uzoqlashsa, ana shunda qo'msay boshlaydi. Mana shu tuyg'u deyarli barcha odamda mavjud. Ilyos ham Asal va o'g'lidan uzoqda Xadicha bilan yangi turmush boshlamqchi bo'lganida shuni anglab yetadiki, uning uchun sevimli inson hayotini mazmundor qiluvchi kishi Xadicha emas, balki Asal ekanligini angelaydi. Ilyos Asalning turmushga chiqqanligini eshitib, go'yoki bir kun kelib shunday bo'lishi kerakdek o'zini his qiladi.

Munosabatlari juda yaqin, go'yoki bir-birlarini hech ham uzoqlashmaydigan kishilarning ham oralarida juda uzoq masofa, juda uzoq vaqt hukm sursa, bu ularning o'zaro munosabatlariga putur yetkazmay qolmaydi. Ilyos necha yillar mobaynida na Asalni, na o'g'lini ko'rmaydi. Nihoyat ularni uchratganida ularning yangi hayot boshlaganliklarini, Asalning endi boshqa bir oilaning bekasi ekanligiga, o'g'li Samadning endi Boytemirni “dada” deb atayotganligiga guvoh bo'ladi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, O'tkir Hoshimovning “Bahor qaytmaydi” qissasining tili muallif nutqi asosida qurilgan. Ch. Aytmatovning “Sarvqomat dilbarim” qissasi tili uch personaj-hikoyachi tili asosida olib boriladi. Ya'ni birinchisi ham Ilyosning, ham Boytemirning hikoyasini tinglagan va o'quvchilarga taqdim etgan jurnalist hikoyasi, ikkinchisi “Shofyor hikoyasi” Ilyos tilidan hikoya qilinadi. Uchinchisi “Yo'l masterining hikoyasi” aynan Asalning uyidan bosh olib chiqib ketgandan keying kechmishlari Boytemir tili orqali hikoya qilinadi. Har ikkala qissadagi qahramonlar: Muqaddam va Asalning uyidan bosh olib chiqib ketganligidan so'nggi qarorlarini milliylik nuqta'i nazaridan qaraydigan bo'lsak, Muqaddam Alimardonning xiyonatini o'zbek ayollariga xos or-nomusining poymol bo'lganligi deb hisoblab, uni

kechirolmaydi. Asal esa garchi Ilyosdan ranjigan bo‘lsa ham, uning yoniga kelib, uni olib ketishini kutadi. Ilyos kelmagach, undan umidini uzadi. O‘ziga va o‘g‘liga yaxshilik qilayotgan Boytemirga turmushga chiqadi. Boytemir oliyjanob inson. U doimo Asalni tushunishga harakat qilar, agarda Asal Ilyosning yoniga qaytishga qaror qilsa, hech qachon qarshilik ko‘rsatmasligini ta’kidlaydi. Ilyos halokatga uchrab, Boytemir uni qutqarib, uyiga olib kelganida barchasidan xabardor bo‘ladi. Ammo Boytemir na Asalga, na Ilyosga bu haqda so‘z ochmaydi. Bu haqda shunday deydi:

“Asal o‘g‘li bilan ketib qolishi mumkin edi. Bu albatta uning ishi. Mayli, ular yurak amri va aql-idroklari buyurganini qilishsin. Men, men esa nima ham derdim, bunga mening nima daxlim bor, masalani hal etish menga bog‘liq emas, ularga halaqit bermasligim kerak...” [Chingiz Aytmatov. Tanlangan asarlar: 1-jild: Qissalar. 384-bet.]

Bu insonlar bir-birlariga nisbatan shunday oliyjanoblik qilib, bir-birlarining ko‘ngillariga ozor berishga jur‘at qilolmaydilar. Ilyos garchi bir bor katta xatoga yo‘l qo‘ygan bo‘lsa ham, lekin hayotdan umidini uzmaydi, yana olg‘a intilishga harakat qiladi.

“Meni endi tuzalmas, tamom bo‘lgan odam deb o‘ylamang. Kelajagim, hayotim hali oldinda. Kunlar o‘tar, men ham uylanarman, boshqalarga o‘xshab bola-chaqali, uy-joyli bo‘larman. Ishlayman, do‘stlar-birodarlar orttiramman. Lekin faqat birgina narsa: umrbod, manguga yo‘qotgan narsamni qaytara olmasam kerak... O‘tgan ishni hech qachon qaytarib bo‘lmaydi... Ammo hayotimning so‘nggi kunlariga qadar, to so‘nggi nafasimgacha Asalni va oramizda bo‘lib o‘tgan hamma shirin damlarni saqlab o‘taman.” [Chingiz Aytmatov. Tanlangan asarlar: 1-jild: Qissalar. 385-bet.]

“Sarvqomat dilbarim” qissasining yakuni “Bahor qaytmaydi” asarining yakunidan farqlanadi. “Bahor qaytmaydi” qissasi fojia bilan, Alimardonning o‘limi bilan, yakunlansa, “Sarvqomat dilbarim” asari Ilyosning kelajakka intilishi bilan, yangi hayot qurish umidi bilan tugaydi.

Har ikki qissadagi yana bir o‘xshashlikni ta’kidlash lozim.

“Bahor qaytmaydi” qissasida Qonqus anhorining nomlanishiga oid hikoya Muqaddamga Anvar tomonidan hikoya qilinadi. Bu esa asar syujetiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

“Sarvqomat dilbarim” qissasida qirg‘iz xalqining ardoqlanib tilga olinadigan ko‘li Issiqko‘l ta’rifi keltiriladi. Ilyos bilan Asal Issiqko‘lga kelishganlarida unda suzib yurgan oqqushlarni ko‘rishadi. Ilyos oqqushlar haqida so‘zlab beradi. O‘zlarini oqqushlarga o‘xshatishadi. Asar so‘ngida Ilyos Issiqko‘l bilan vidolashadi.

Har bir inson o‘z taqdirini o‘zi hal qilish imkoniyatiga ega. Inson umri uzoq bo‘ladimi yoki qisqa, bu dunyoga keldimi, albatta, bir yaxshilik qilishi, o‘zidan yaxshi nom qoldirishi kerak. Vaqtinchalik hoy-u havaslar, shon-shuhratga berilmaslik lozim. Zero, bu dunyoda odamlardan faqat yaxshilik qoladi. O‘tkir Hoshimov ham, Chingiz Aytmatov ham o‘z asarlarini yaratishlaridan birdan-bir maqsadlari barcha davr kishilarini ezgulikka, yaxshilikka intiluvchi etib tarbiyalashdir.



**ADABIYOTLAR:**

1. Normatov U., Nasrimiz ufqlari. -Toshkent, 1974.
2. Ulug‘ov A., Zamonaviylik va xalqchilik. Qissachiligimiz qirralari, -Toshkent, 1991.
3. Xolmurodov A., O‘zbek qissachiligi: taraqqiyot muammolari (XX asr so‘nggi choragi), f.f.d. dissertatsiyasi, -Toshkent, 2008.
4. Normatov U., Ijod sehri. -Toshkent, “Sharq”, 2007. B. 146.
5. Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. -Toshkent, “Sharq”, 2007. –B. 200-201.
6. Солиев А. Ҳаёт ва инсон талқини. – Тошкент: Турон замин зиё. 2015, 110-б.
7. Chingiz Aytmatov. Tanlangan asarlar:1-jild:Qissalar. -Toshkent, “Sharq”,2009.-496 b. 298-bet.
8. O‘tkir Hoshimov “Bahor qaytmaydi”, -Toshkent, “Sharq”, 2007, -128 b.